



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 4-son 2026 yil

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI VA AUDIT
MEKANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH**

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ
КАЛЬКУЛИРОВАНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ
ПРЕДПРИЯТИЯХ И РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ АУДИТА**

**METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING PRODUCT COST
CALCULATION SYSTEMS IN INDUSTRIAL ENTERPRISES AND DEVELOPMENT OF
AUDIT MECHANISMS**

Xusainov Mavlon

Andijon davlat texnika instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish xarajatlarini aniq va samarali hisoblash, ularning tarkibini optimallashtirish hamda korxona rentabelligini oshirishda audit mexanizmlarining o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida zamonaviy boshqaruv hisobi usullari, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajriba asosida tannarxni shakllantirish tizimini rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan. Maqola natijalari sanoat korxonalarida xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tannarx, kalkulyatsiya, sanoat korxonalari, ishlab chiqarish xarajatlari, audit, boshqaruv hisobi, samaradorlik, raqamli texnologiyalar.

В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы совершенствования системы калькулирования себестоимости продукции на промышленных предприятиях. Особое внимание уделяется вопросам точного учета производственных затрат, оптимизации их структуры и повышению рентабельности предприятий за счет эффективных механизмов аудита. В ходе исследования предложены направления развития системы формирования себестоимости на основе современных методов управленческого учета, цифровых технологий и международного опыта. Полученные результаты способствуют повышению эффективности управления затратами на предприятиях.

Ключевые слова: себестоимость, калькулирование, промышленные предприятия, производственные затраты, аудит, управленческий учет, эффективность, цифровые технологии.

This article examines the theoretical and methodological foundations for improving product cost calculation systems in industrial enterprises. It analyzes the role of audit mechanisms in ensuring accurate cost accounting, optimizing cost structures, and increasing enterprise profitability. The study proposes ways to enhance cost formation systems based on modern management accounting methods, digital technologies, and international practices. The findings contribute to improving cost management efficiency in industrial enterprises.

Keywords: cost price, cost calculation, industrial enterprises, production costs, audit, management accounting, efficiency, digital technologies.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, mahsulot tannarxini aniq va asosli kalkulyatsiya qilish korxonaning moliyaviy natijalari,

raqobatbardoshligi hamda bozor ulushini kengaytirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tannarxni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklar, hisob-kitobdagi xatoliklar yoki noto‘g‘ri metodologik yondashuvlar korxona foydasining kamayishiga olib keladi.

Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimi murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri tasniflash, ularni hisobga olish va nazorat qilishni talab etadi. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy sharoitda an‘anaviy hisoblash usullari ko‘pincha yetarli darajada aniqlik bermaydi. Bu esa tannarxni hisoblashda innovatsion yondashuvlar, jumladan, boshqaruv hisobi usullari va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi.

Mazkur muammoning yana bir muhim jihati – bu audit mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Ishlab chiqarish xarajatlari ustidan samarali audit nazoratining yo‘qligi resurslardan samarasiz foydalanish, yashirin xarajatlar va moliyaviy intizomning buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, tannarx kalkulyatsiyasini takomillashtirish bilan bir qatorda audit tizimini rivojlantirish ham dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda mahsulot tannarxini aniqlashda Activity-Based Costing (ABC), standart costing va target costing kabi ilg‘or usullar keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar ishlab chiqarish xarajatlarini chuqur tahlil qilish, ularni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yuqori aniqlikni ta‘minlaydi. Shu jihatdan, ushbu tajribalarni milliy sanoat korxonalarida joriy etish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur ilmiy maqolaning maqsadi sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslarini ishlab chiqish hamda audit mexanizmlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash va tizimli yondashuvlardan foydalanildi.

Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Jumladan, amerikalik olimlar Kaplan va Cooper o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida an‘anaviy tannarx hisoblash tizimlari zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida yetarli darajada aniq natija bermasligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismi endilikda bevosita mehnat bilan emas, balki yordamchi faoliyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, shu sababli Activity-Based Costing (ABC) tizimini joriy etish zarur [1]. Ushbu yondashuv xarajatlarni faoliyatlar kesimida aniqlash orqali tannarxni yanada aniq hisoblash imkonini beradi.

Horngren, Datar va Rajan o‘zlarining “Cost Accounting: A Managerial Emphasis” asarida tannarx hisobining asosiy maqsadi boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etadilar. Ularning fikricha, tannarx kalkulyatsiyasi nafaqat xarajatlarni hisoblash, balki ularni tahlil qilish va nazorat qilish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega [2].

Drury o‘zining ilmiy ishlarida boshqaruv hisobi va tannarx hisobining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta‘kidlab, xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash va nazorat qilish korxona samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri ekanligini ko‘rsatadi [3]. Unga ko‘ra, tannarxni noto‘g‘ri hisoblash noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga olib keladi.

O‘zbekistonlik olimlardan D. Tashnazarova o‘zining ilmiy maqolasida “absorption costing” va “variable costing” tizimlarini tahlil qilib, har bir usulning afzallik va kamchiliklarini ochib beradi. Muallifning fikricha, mazkur tizimlardan samarali foydalanish korxonalarda xarajatlarni boshqarish va foydani oshirishda muhim vosita hisoblanadi [4]. Shu bilan birga, ushbu tizimlarni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish zarurligi ta‘kidlanadi.

Shuningdek, S. Onorboev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarida xarajatlarni tashkil etish va boshqarishda zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo‘llash muhimligi qayd etiladi. Muallifning ta‘kidlashicha, ayniqsa ABC tizimi ishlab chiqarish xarajatlarini chuqur tahlil qilish va ularni optimallashtirishda samarali vosita hisoblanadi [5].

Mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan, A.A. Ibragimov va B.B. Karimov o‘zlarining “Boshqaruv hisobi” asarida tannarx hisobining nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni korxona

boshqaruvida axborot manbai sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, tannarxni aniq hisoblash korxona rentabelligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi [6].

Tursunov B.O. o‘z ilmiy ishlarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini shakllantirish jarayonida zamonaviy usullardan foydalanish zarurligini asoslab beradi. Muallif tannarxni optimallashtirish orqali korxona moliyaviy natijalarini yaxshilash mumkinligini ta’kidlaydi [7].

Yuqoridagi ilmiy qarashlardan ko‘rinadiki, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishda zamonaviy boshqaruv hisobi usullari, xususan ABC, standart costing va boshqa yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu tizimlarni amaliyotga tatbiq etishda audit mexanizmlarini rivojlantirish zarurati ham alohida e’tiborga loyiqdir.

Mazkur tadqiqotda sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Xususan, nazariy tahlil, taqqoslash va tizimli yondashuv usullari asosida mavjud ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar o‘rganildi. Shuningdek, iqtisodiy-statistik usullar yordamida ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi va ularning samaradorlikka ta’siri tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy boshqaruv hisobi usullari, jumladan, faoliyatga asoslangan kalkulyatsiya (ABC) va raqamli texnologiyalar asosida tannarxni shakllantirish mexanizmlari o‘rganildi. Bundan tashqari, ilmiy umumlashtirish va mantiqiy tahlil usullari orqali audit mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirish tizimini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, amaldagi an’anaviy kalkulyatsiya usullari ko‘pincha ishlab chiqarish xarajatlarini to‘liq va aniq aks ettira olmaydi. Ayniqsa, bilvosita xarajatlarning ortib borishi sharoitida ularni mahsulot turlariga to‘g‘ri taqsimlash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Natijada, ayrim mahsulotlar tannarxi sun’iy ravishda oshib ketadi yoki aksincha, past baholanadi, bu esa noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga olib keladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida xarajatlarning tarkibiy tuzilmasida so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Bevosita mehnat xarajatlari ulushi kamayib, umum - ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlari ulushi ortib bormoqda. Bu esa tannarxni hisoblashda an’anaviy usullarning samaradorligini pasaytiradi va zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi.

Quyidagi jadvalda sanoat korxonasida mahsulot tannarxining tarkibiy tuzilmasi shartli ravishda keltirilgan:

1-jadval

Sanoat korxonasida mahsulot tannarxining tarkibi (shartli ma’lumotlar asosida)

Xarajat turlari	2022 yil (%)	2023 yil (%)	2024 yil (%)
Xomashyo va materiallar	52	50	48
Bevosita mehnat xarajatlari	18	16	14
Umum-ishlab chiqarish xarajatlari	20	22	25
Boshqaruv xarajatlari	10	12	13
Jami	100	100	100

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, umum-ishlab chiqarish va boshqaruv xarajatlari ulushi yil sayin oshib bormoqda. Bu holat korxonalarda bilvosita xarajatlarni aniq hisobga olish va ularni mahsulotlarga to‘g‘ri taqsimlash zaruratini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan, Activity-Based Costing (ABC) tizimini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ABC tizimi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xarajatlarni faoliyatlar kesimida taqsimlash natijasida mahsulot tannarxi yanada aniq hisoblanadi. Masalan, an’anaviy usulda yuqori tannarxi deb baholangan ayrim mahsulotlar ABC tizimi orqali qayta hisoblanganda aslida kamroq resurs talab qilishi aniqlangan. Bu esa mahsulot assortimentini optimallashtirish va foydali mahsulotlarni aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida audit mexanizmlarining holati ham o‘rganildi. Aniqlanishicha, ko‘plab sanoat korxonalarida ichki audit tizimi yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lib, xarajatlar ustidan nazorat sust darajada amalga oshiriladi. Bu esa ortiqcha xarajatlar yuzaga kelishiga

va moliyaviy natijalarning pasayishiga olib keladi. Samarali audit tizimini joriy etish orqali xarajatlarni optimallashtirish va yashirin yo‘qotishlarni aniqlash mumkin.

Ilmiy tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

- tannarx kalkulyatsiyasida zamonaviy usullarni joriy etish zarur;
- bilvosita xarajatlarni boshqarish tizimini takomillashtirish kerak;
- audit mexanizmlarini kuchaytirish orqali moliyaviy nazoratni oshirish mumkin;
- raqamli texnologiyalarni joriy etish tannarxni hisoblash aniqligini oshiradi.

Umuman olganda, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirish va audit mexanizmlarini rivojlantirish sanoat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirish korxona faoliyatining umumiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy tannarx hisoblash usullari zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida, ayniqsa bilvosita xarajatlar ulushi ortib borayotgan sharoitda, yetarli darajada aniqlikni ta’minlay olmaydi. Shu sababli, tannarxni shakllantirishda zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo‘llash zarurati yuzaga keladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, Activity-Based Costing (ABC), standart costing va boshqa ilg‘or yondashuvlarni joriy etish mahsulot tannarxini aniqroq hisoblash, xarajatlarni samarali boshqarish hamda foydani oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytirish mumkin.

Shuningdek, audit mexanizmlarini rivojlantirish sanoat korxonalarida moliyaviy intizomni mustahkamlash va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ichki audit tizimini takomillashtirish, xarajatlar ustidan doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish hamda nazorat mexanizmlarini kuchaytirish orqali ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va yashirin zaxiralarni aniqlash mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirish va audit mexanizmlarini rivojlantirish o‘zaro uzviy bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ularni kompleks tarzda joriy etish sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorligini ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kaplan R.S., Cooper R. Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance. – Harvard Business School Press, Boston, 1998. – 357 p.
2. Horngren C.T., Datar S.M., Rajan M.V. Cost Accounting: A Managerial Emphasis. – Pearson Education, New York, 2020. – 912 p.
3. Drury C. Management and Cost Accounting. – Cengage Learning, London, 2018. – 896 p.
4. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. – Pearson Education, London, 2017. – 816 p.
5. Tashnazarova D. “Absorption va Variable Costing tizimlarini qo‘llash masalalari”. – Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil jurnali, Toshkent, 2025. – 45–52-betlar.
6. Onorboev S. “Kimyo sanoati korxonalarida ABC metodologiyasini qo‘llash xususiyatlari”. – Ilmiy maqola, Toshkent, 2024. – 28–34-betlar.
7. Ibragimov A.A., Karimov B.B. Boshqaruv hisobi. – “Iqtisodiyot” nashriyoti, Toshkent, 2020. – 320 bet.
8. Tursunov B.O. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi. – “Moliya” nashriyoti, Toshkent, 2019. – 280 bet.